KUCH ADOLATDADIR Amir TEMUR

ADOLAT MEZONI

GAZETA 2010-YIL 3-MAYDAN CHIQA BOSHLAGAN // HUQUQIY-IJTIMOIY VA MA'NAVIY-MA'RIFIY GAZETA // ISSN 2181 - 483X WWW.ANDIJONSADOSI.UZ // № 32 (562) 2025-YIL, 13-AVGUST

O‘zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan “Adolat mezoni” gazetasining “Korrupsiyasiz jamiyat – taraqqiyot kafolati” nomli loyiha doirasida maxsus sahifa chop etilgan 31-sonidan Andijon shahridagi 10-umumta’lim maktabidagi pedagog va texnik xodimlarga bepul tarqatildi.

PEDAGOG VA TEXNIK XODIM LOYIHA DOIRASIDA CHOP ETILGAN GAZETALAR TARQATILDI



-Loyiha doirasidagi sahifada jurnalistlarimizni korrupsiyani nechog‘li zararli illat ekanligi va yoshlarga unga qarshi kurashishda immunitet hosil qilish borasida fikrlarini qiziqib o‘qidim. Bularni mahallada bo‘lib o‘tadigan tadbirlarda va o‘quvchilarimga dars o‘tayotganda foydalanaman, - dedi maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi Gulchehraxon Yuldasheva.

M.ORTIQOVA,
“Adolat mezoni” muxbiri.



“KORRUPSIYASIZ JAMIYAT - TARAQQIYOT KAFOLATI”

O'zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan "Adolat mezoni" gazetasining "Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati" loyihasi doirasidagi sahifa

MAXSUS SAHIFA MATERIALLARI XALQCHIL TILDA YOZILGAN

O‘zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan “Adolat mezoni” gazetasining “Korrupsiyasiz jamiyat – taraqqiyot kafolati” nomli loyiha doirasida maxsus sahifa chop etilgan 31-sonidan O‘zbekiston ekologik partiyasi Oltinko‘l tuman Kengashi faollariga ham bepul tarqatildi.

-Korrupsiya jamiyatni har bir qatlamiga kirib borgan. Loyiha doirasida tayyorlangan maxsus sahifani o‘qib chiqdim. Jurnalistlar tomonidan xalqchil tilda yozilgan korrupsiya tushunchasi va uni oldini olish borasidagi taklif va fikrlari menga yoqdi. Bu maqolani o‘qigan kishi korrupsiya haqidagi bilimi yanada ortadi, dedi tuman Kengashi raisi Sardorbek Azimxo‘jayev.

Z.QODIROV,
“Adolat mezoni” muxbiri.



(Sahifani davomi 3-betda).

Muqobil energiya

YOQILG‘I-ENERGIYA RESURSLARIDAN OQILONA FOYDALANISH – DAVR TALABI

Bugungi kunda global iqlim o‘zgarishi, energiya resurslari tanqisligi va atrof-muhit muhofazasiga bo‘lgan e’tibor butun dunyoda energiya samaradorligi masalasini dolzarb muammoga aylantirmoqda. Respublikamizda ham bu borada izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, yoqilg‘i-energiya resurslaridan noqonuniy foydalanish va ularni behuda sarflanishining oldini olish borasida qat’iy chora-tadbirlar ko‘rilmoqda.

Yoqilg‘i-energiya resurslaridan noqonuniy foydalanish – bu nafaqat iqtisodiy zarar, balki mavjud resurslarga nisbatan befarqlikdir. Amaldagi qonunchilikda elektr, gaz va issiqlik energiyasidan noqonuniy foydalanish holatlari uchun javobgarlik belgilangan. Jinoyat kodeksi va Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga muvofiq, bunday huquqbuzarliklarga qarshi qat’iy choralar ko‘riladi.

Adliya organlarining ushbu sohadagi vazifalari – aholini huquqiy xabardorlik darajasini oshirish, qonunbuzilishlar profilaktikasi, davlat organlari bilan hamkorlikda monitoring ishlarini olib borishdan iborat. Xususan, Andijon viloyat adliya boshqarmasi tomonidan hududlarda energiya samaradorligini ta’minlashga qaratilgan tushuntirish ishlari muntazam olib borilmoqda.

Energiya resurslarini tejash nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki ekologik barqarorlikni ta’minlaydi. Bugungi kunda aholining ko‘plab qatlamlari energiya iste’molini kamaytirishga, zamonaviy, tejamkor texnologiyalardan foydalanishga harakat qilmoqda.

Bundan tashqari, binolarni issiqlik bilan ta’minlashda izolyatsiya darajasini oshirish, energiya tejamkor yoritish vositalaridan foydalanish va uy xo‘jaliklarida avtomatlashtirilgan hisoblagichlar o‘rnatish orqali ham muhim natijalarga erishish mumkin.

Albatta, muqobil energiya manbalaridan foydalanish, xususan, quyosh panellarini o‘rnatish bugungi kundagi eng istiqbolli yo‘nalishlardan biridir. Quyosh energiyasi cheksiz va ekologik toza bo‘lib, u energiya ta’minotidagi muammolarni bartaraf etish imkonini beradi. Quyosh panellarining afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Mustaqil energiya manbai sifatida foydalanish imkoniyati;
- Kommunal to‘lovlarni sezilarli kamaytirish;
- Uzoq muddatli foydalanish (20-25 yilgacha);
- Atrof-muhitga zarar yetkazmaslik;
- Davlat tomonidan ajratilayotgan subsidiyalar va imtiyozlar mavjudligi.

Shu boisdan, har bir fuqaro va tadbirkor quyosh panellari o‘rnatish orqali nafaqat o‘zining energiya xarajatlarini kamaytiradi, balki mamlakatimiz energetika xavfsizligiga ham hissa qo‘shadi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, yoqilg‘i-energiya resurslaridan oqilona foydalanish va ularni tejash – bu faqatgina davlat siyosatining bir bo‘lagi emas, balki har bir fuqaroning ongli harakati bo‘lishi kerak. Muqobil energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, energiya samaradorligini oshirish orqali biz kelajak avlodlar uchun barqaror va yashil muhitni ta’minlaymiz.

Shunday ekan, barcha yurtdoshlarimizni energiya resurslariga mas’uliyat bilan yondashishga, mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanishga va kelajakka zamin yaratishda faol ishtirok etishga chaqiramiz.

Otabek BOZAROV,
Andijon viloyat adliya boshqarmasi boshlig‘i.

ELEKTR ENERGIYASI

ISLOHOTLARDA ISTE’MOLCHILAR MANFAATI USTUVOR



Bugun yurtimizda aholi turmush shart-sharoitini yaxshilash, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash dasturlarining natijadorligiga erishish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Andijon hududiy filialida olib borilayotgan ishlar xususida filial direktori Sardorbek YUSUPOV bilan suhbatlashdik.

-Suhbatimiz avvalida “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Andijon hududiy filialida “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida olib borilayotgan ishlarga to‘xtalsak.

- “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ Andijon hududiy filialida ham O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentyabrdagi “Kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida”gi farmoni hamda “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilgan.

Mazkur qaror ijrosini ta’minlash maqsadida Andijon viloyatidagi 86 mahallalar tanlab olinib ularni infratuzilmasini yaxshilash uchun viloyatga 285 mlrd. so‘m mablag‘ ajratilgan. Shundan Elektr energiyasi barqaror yetkazib berilishini ta’minlash bo‘yicha 80 mlrd. 409 mln. so‘mlik 86 ta mahallalarda 181 ta transformator yangilash va 338,4 km tarmoqlarni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish rejalashtirilgan. Amalda 83 ta MFYlarga 7 262 dona (rejaga nisbatan 62 foiz) temir beton tayanchlar chiqarilib, 7 205 dona (olib chiqilganga nisbatan 99 foiz) tayanchlar o‘rnatildi, 177,6 km (rejaga nisbatan 53 foiz) uzunlikda elektr tarmoqlari tortildi va 112 dona (62 foiz) transformator punktlari o‘rnatildi.

Jalaquduq tumanining Madaniyat MFY hududida dastur bo‘yicha keng ko‘lamli elektr tarmoqlarini modernizatsiya qilish ishlari olib borilmoqda. Loyihada jami 180 ta temir-beton tayanch o‘rnatilib, 5,5 km uzunlikdagi 10/0,4 kV kuchlanishli yangi tarmoqlar tortilmoqda. Hudud aholisi uchun barqaror elektr energiyasi ta’minotini yaratish maqsadida quvvati 250 kVA bo‘lgan 2 dona transformator punkti ham o‘rnatildi.

Xo‘jaobod tumanining “Yetmishmergan” MFY hududida quvvati 160 kVA bo‘lgan 3 dona yangi transformator punktlari hamda 6,4 km uzunlikdagi 10/0,4 kVli havo elektr tarmoqlarini qurish ishlari jadal davom etmoqda. Ushbu ishlar hududda barqaror elektr energiyasi ta’minotini yo‘lga qo‘yish va aholining turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Oltinko‘l tumanidagi “Toptiq” mahallasida 200 dona temir-beton tayanch o‘rnatilib, 4,3 km uzunlikdagi yangi elektr tarmog‘i tortilmoqda. Mahallada 2 dona, har biri 250 kVA quvvatga ega transformator punkti ham ishga tushirilmoqda.

Shuningdek, “Sadda” mahallasida esa 5,9 km elektr tarmog‘i yangilandi va yana 2 dona quvvati 250 kVA bo‘lgan transformator punktlari barpo etildi.

Natijada, ikki mingdan ortiq xonadonning elektr energiyasi ta’minoti nafaqat barqarorlashdi, balki sifat jihatidan ham ancha yaxshilandi.

- Dono xalqimizda “Qish g‘amini yozda qil” degan naql bor. Barcha sohalarda kuz-qish mavsumiga alohida tayyorgarlik ko‘riladi. Bu borada filialda amalga oshirilayotgan ishlar haqida gapirib bersangiz.

- Darhaqiqat shunday. 2025-2026-yillar kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish yuzasidan 2025-yil davomida 2146,4 km 0,4-6-10 kV kuchlanishli elektr uzatish tarmoqlari va 835 dona transformator punktlarini mukammal ta’mirlash rejalashtirilgan bo‘lib, yanvar-iyun oylari davomida 1753,0 km (82 foiz) elektr uzatish tarmoqlari va 630 dona (75 foiz) transformatorda mukammal ta’mirlash ishlari olib borildi va 1 mlrd. 809 mln. so‘m mablag‘ sarflandi. Natijada viloyatimiz hududidagi 68 ming dan ziyod aholi xonadonlari elektr energiyasi ta’minoti yaxshilanishiga erishildi.

-Amalga oshirilayotgan ishlar hammasi iste’molchilarni uzluksiz elektr energiyasi bilan ta’minlashga qaratilmoqda. Endi iste’molchilar ham o‘zlari tomonidan amalga oshirilishi kerak bo‘lgan to‘lovlarni o‘z vaqtida amalga oshiryaptimi? Mana shular haqida aytib bersangiz.

- “Energosavdo” filiali Andijon bo‘linmasida 2025 yil yanvar-iyun oylari davomida iste’molchilarga jami 1 trln. 291 mlrd. so‘mlik, shu jumladan ulgurji iste’molchilarga jami 869 mlrd. so‘mlik va aholi iste’molchilariga 422 mlrd. so‘mlik elektr energiyasi yetkazib berildi. Iste’molchilardan 2025 yil yanvar-iyun oylari davomida jami 1 trln. 409 mlrd. so‘m (109,1 foiz), shu jumladan ulgurji iste’molchilardan 954 mlrd.so‘m (109,8 foiz) va aholi iste’molchilardan 455 mlrd.so‘m (107,8 foiz) mablag‘lar undirib olinishi ta’minlandi.

2025 yil 1-yanvar holatiga jami debitor qarzdorlik 576 mlrd. 872 mln. so‘m, shundan aholi 494 mlrd. 336 mln. so‘m va ulgurji 174 mlrd. 887 mln. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yil 1-iyul holatiga jami debitor qarzdorlik 553 mlrd. 349 mln. so‘m, shundan aholi 476 mlrd. 820 mln.so‘m va ulgurji 76 mlrd. 529 mln. so‘mni tashkil etib, yil boshiga nisbatan jami qarzdorlik 23 mlrd. 523 mln. so‘mga, aholi iste’molchilari qarzdorligi 17 mlrd. 516 mln. so‘mga, ulgurji iste’molchilari qarzdorligi 6 mlrd. 7 mln. so‘mga kamaydi.

2025-yil davomida elektr energiyasini hisobga olish va nazorat qilishni avtomatlashtirilgan (ASKUE) tizimini barqaror ishlashini ta’minlash maqsadi tizimga mos kelmaydigan eski turdagi hisoblagichlarni 8 596 dona yangi zamonaviy hisoblagichlarga almashtirish rejalashtirgan bo‘lib, “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ tomonidan yetkazib berilgan 4 000 dona yangi zamonaviy ASKUE tizimiga mos keluvchi hisoblagichlarga almashtirilib, aloqaga chiqarilishi ta’minlandi.

Dilbar ABDUMAJIDOVA suhbatlashdi.

NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI

DAVLAT RO‘YXATIDAN O‘TKAZISH

Fuqarolik jamiyatining rivojlanishi huquqiy-demokratik jamiyatning asosiy belgilaridan biri sanaladi. Fuqarolik jamiyatining institutlaridan biri sifatida nodavlat notijorat tashkilotlari demokratik huquqiy davlat barpo etish, jamiyatda qonun ustuvorligini ta’minlash hamda mamlakatning ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy salohiyatini oshirish yo‘lida muhim ahamiyat kasb etadi.

Nodavlat notijorat tashkiloti (NNT) o‘z a’zolari va qatnashchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini ifodalash hamda himoya qilish, ijtimoiy hayotning turli masalalariga doir tashabbuslar bilan chiqish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga takliflar kiritish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining qarorlarini ishlab chiqishda qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda ishtirok etish, o‘z faoliyati to‘g‘risida axborot tarqatish, ommaviy axborot vositalarini ta’sis etish hamda belgilangan tartibda noshirlik faoliyatini amalga oshirish, ustavda belgilangan vazifalarni bajarish uchun tadbirkorlik tuzilmalarini tashkil etish, o‘z ramziy belgilarini ta’sis etish, o‘z faoliyatiga taalluqli masalalar yuzasidan yig‘ilishlar, konferensiyalar o‘tkazish, qonunchilikka muvofiq vakolatxonalar ochish va filiallar tashkil etish va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ega bo‘ladi.

NNTni tashkil etish tartibi qonun bilan belgilab qo‘yilgan. NNT tashabbuskorlari yoki muassislari ta’sis syezdini (konferensiyasini) yoki umumiy yig‘ilishni chaqiradilar, unda ustav qabul qilinadi hamda rahbar organlari tuziladi. NNT davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan paytdan e’tiboran tuzilgan deb hisoblanadi.

NNTni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish adliya organlari tomonidan amalga oshiriladi. Viloyat, tuman, shahar, shaharcha, qishloq va ovul hududlarida faoliyat olib boradigan NNT Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalarida ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

NNTni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

– mazkur NNTning rahbar organi a’zolari har birining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug‘ilgan yili va joyi, yashash joyi hamda manzilini ko‘rsatgan holda ular tomonidan imzolangan ariza;

– NNTning ustavi yoxud yuridik shaxs bo‘lgan vakolatxona yoki filial to‘g‘risidagi nizom davlat tilida ikki nusxada;

– NNTni tashkil etish to‘g‘risidagi ta’sis syezdi (konferensiyasi) yoki umumiy yig‘ilishning bayonnomasi yoxud ta’sischining qarori;

– joylashgan yeri NNTning pochta manzili sifatida foydalanilishi mo‘ljallanayotgan ko‘chmas mulkka bo‘lgan mulk huquqini yoki undan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjat;

– nodavlat notijorat tashkilotini tuzish tashabbuskorlari yoxud uning ta’sischilari to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

– tashabbuskor fuqarolarning ro‘yxati;

– dastlabki mablag‘lar shakllantirilganligini tasdiqlovchi hujjat – jamoat fondlari uchun;

– vasiyatnomaning notarial tasdiqlangan nusxasi – vasiyatnoma bo‘yicha tashkil etilayotgan jamoat fondlari uchun;

– davlat boji to‘langanligi to‘g‘risidagi bank to‘lov hujjati.

Ushbu hujjatlarni qabul qilib olgan adliya organi ularni bir oylik muddat ichida ko‘rib chiqadi. Shundan so‘ng NNTni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida yoki davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi va qaror qabul qilingan paytdan e’tiboran uch kun ichida muassislarga davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida guvohnoma yoki qonunchilikning qaysi qoidalari buzilganligi davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni rad etishga olib kelganligi haqida aniq ko‘rsatilgan hujjat beradi.

Davlat ro‘yxatidan o‘tgan NNTlar yuridik shaxslarning hamma tanishib chiqishi uchun ochiq bo‘lgan yagona davlat reyestriga kiritiladi.

M. AXMATOXUNOV,
Andijon viloyat adliya boshqarmasi Nodavlat notijorat tashkilotlari sho‘ba bosh maslahatchisi.

«KORRUPSIYASIZ JAMIYAT – TARAQQIYOT KAFOLATI

O‘zbekiston Oliy Majlisi huzuridagi Fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan «Adolat mezoni» gazetasining «Korrupsiyasiz jamiyat - taraqqiyot kafolati» loyihasi doirasidagi sahifa

ILLATGA QARSHI BARCHA BIRDEK KURASHISHI ZARUR!



Korrupsiya – bu davlat yoki jamoatchilik manfaatlarini shaxsiy foyda uchun suiiste’mol qilish bilan bog‘liq noqonuniy faoliyatdir. U ijtimoiy adolat, iqtisodiy o‘sish va demokratik institutlar rivojiga jiddiy tahdid soladi. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, har yili dunyoda korrupsiya tufayli yuzlab milliard dollarlar yo‘qotiladi. Shu sababli, poraxo‘rlikka qarshi kurash nafaqat huquqiy, balki siyosiy, iqtisodiy va madaniy masala hamdir.

Prezidentimiz alohida qayd etib o‘tganidek: “Jamiyatimizda korrupsiya, turli jinoyatlarni sodir etish va boshqa huquqbuzarlik holatlariga qarshi kurashish, ularga yo‘l qo‘ymaslik, jinoyatga jazo albatta muqarrar ekani to‘g‘risidagi qonun talablarini amalda ta’minlash bo‘yicha qat’iy choralar ko‘rishimiz zarur”.

Korrupsiya - lotinchada «evrilish, buzilish, pora berib sotib olish» ma’nosini anglatib, mansabdor shaxslar tomonidan ularga berilgan huquq va imkoniyatlardan shaxsiy boylik orttirish maqsadida foydalanishni ifodalovchi siyosiy yoki davlat boshqaruvi sohasidagi jinoiy faoliyat ma’nosini anglatadi. Shuningdek, uning tarkibiga mansab vakolatini suiiste’mol qilish, hokimiyat harakatsizligi, pora olish, berish va boshqa bir qator jinoyatlar ham kiradi.

Albatta, har qanday demokratik davlat ushbu illatning avj olishiga yo‘l qo‘ymasdan unga qarshi tizimli ravishda ish olib borilishni taqozo etadi.

Bilamizki, 2017-yil 3-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonuni qabul qilindi. Bu qonun bugungi kunda davlat organlari faoliyatining ochiqligini va hisobdorligini ta’minlash, davlat boshqaruvi tizimining samaradorligini oshirish, davlat organlari, mansabdor shaxslarning o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi yuzasidan mas’uliyatini kuchaytirishga, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida parlament va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish maqsadlariga xizmat qilmoqda.

Ushbu illat inson huquqlarining buzilishi, mamlakat taraqqiyoti va jamiyat ravnaqiga jiddiy ta’sir etar ekan, demak unga qarshi kurashish birgina davlat idorasi yoki jamoat tashkilotiga emas, balki, shu davlat fuqarosi, jamiyat a’zolariga birdek tegishli bo‘lgan ish hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda davlat idoralari bilan bir qatorda fuqarolik jamiyati institutlari jamoat tashkilotlarining o‘zaro hamkorlikda ish olib borishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Adolat tamoyillarini qaror toptirishda, albatta jamiyat a’zolarining huquqiy bilim va malakalarining yetarli darajada bo‘lishi, qonun oldida barchaning tengligini ta’minlash tamoyilini qaror toptirish muhim hisoblanadi. Shubhasiz, aholi huquqiy ongini ko‘tarish va huquqiy bilimlarini oshirish maqsadida korrupsiya haqida, unga qarshi kurash va uning oldini olish choralarini ko‘rishga bag‘ishlangan mavzularda davra suhbatlari tashkil qilish, korrupsiya tarkibidagi jinoyatlar, jumladan, mansab vakolatini suiiste’mol qilish, hokimiyat harakatsizligi, pora olish, berish va boshqa bir qator qonunbuzarliklar uchun belgilangan jazo choralari haqida yetarli darajada tushuncha va ma’lumotlar berib borish o‘rinlidir.

Dilfuzaxon ABDUSOLOMOVA,
O‘zbekiston notarial palatasi Andijon viloyat hududiy boshqarmasi boshlig‘i.

Jinoyatga jazo muqarrar

700 DOLLARGA SOTILGAN OBRO‘

Inson yaralibdiki, nafs atalmish illat unga hamisha ergashib yuradi. Qayerdaki, istaklarini tiya olmaydigan kimsalar bor ekan, u tobora chuqurroq ildiz otib boraveradi.

Oqibatda u o‘z «xo‘jayini”ni «qul”ga aylantirib, falokat jariga qulatadi. Ammo inson buni ko‘rabila turib, unga ergashaverar ekan. Sababi nafs «o‘lgur” har qanday «qabihlik”ni ham bir zumda



ko‘zga chiroyli qilib ko‘rsata olish mahoratiga ega.

Olimjon Komilov (ismfamiliyalar o‘zgartirilgan) Andijon shahar Olimpiya va milliy sport turlari bo‘yicha davlat ixtisoslashtirilgan maktab internati direktori. Uni yoniga o‘tgan yilning avgust oyi boshlarida mazkur maktabda karate yo‘nalishida murabbiy bo‘lib ishlovchi Elmurod keladi.

-Aka, 9-sinfga kirmoqchi bo‘lgan 2 nafar o‘quvchi bor.

-9-sinflarga qabul qila olmaymiz -Aynan 9-sinfda o‘quvchilar kamayib ketgan.

-Yo‘q biz faqat 6-sinfga qabul qilamiz.

-Mayl, o‘quvchilar qabuli bir gap bo‘lar. O‘zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sport universitetining sirtqi ta’lim 2-kurs talabasi bor. Ishga kirmoqchi.

-Unga guruh yo‘q-ku?

-Aka, agar 6-sinfga 6 nafar o‘quvchi qabul qilsak, yana bitta guruh ochish imkoni bo‘lardi va ishga kirmoqchi bo‘lgan yigitni ishga olardik.

-Qani, oldin o‘quvchi olaylik.

Oradan bir-ikki kun o‘tgach, Elmurod 6-sinfga 2 nafar o‘quvchini razryadi tayyor bo‘lganini aytdi.

-Bu yetmaydi. Yana 4 nafar o‘quvchi bo‘lishi kerak.

-Men ularni ham topaman. Siz hozir borini olib turavering.

Avgust oyining 15-kunida Elmurod Olimjonni xonasiga kirdi va qo‘lidagi 700 dollarni uni qo‘liga tutqazib chiqib ketdi.

Olimjon, “Yomon emas 2 o‘quvchiga 200 dan 400 va murabbiylikka kiradigandan 300. Qaddingni ur, deb xursand bo‘lib turgan chog‘i eshikdan notanish kishilar kelishdi-da, hujjatlarini ko‘rsatishgach, Olimjon turgan joyida qotib qoldi. “Nafsim qursin yongan o‘tga soldi-da” dedi pichirlab. Tortmadagi pullarni chiqarib, stol ustiga qo‘ydi. Uning qo‘lidagi qora sellofan paketdagi pullarda «pora” yozuvi tushirilgan edi. Shu yerning o‘zida hujjatlar to‘ldirilib, imzolar qo‘yildi.

Unga nisbatan jinoyat ishi ochildi.

U bergan ko‘rsatmasida ushbu ikki nafar o‘quvchi va 1 nafar murabbiyni umuman ko‘rmagani va ular bilan gaplashmagani va pul talab qilmaganini aytdi. Aksincha, Elmurod unga taklif qilib qiziqtirgani, internatga o‘qishga va ishga kirish qabul qilish bo‘yicha buyruq chiqarishi, o‘quvchilarni o‘qishga qabul qilish uchun alohida qabul komissiyasi tuzilgan bo‘lib, ushbu komissiya qaroriga asosan o‘quvchilar o‘qishga qabul qilinishini ta’kidladi. Shuningdek, internatga o‘qishga kirish uchun sport razryadi bo‘lgan fuqarolar sport yo‘nalishiga qarab sport sinovlaridan normativlarini bajarib sinovlardan o‘tganidan so‘ng o‘qishga qabul qilinishini qayd etdi.

“Faoliyatim davomida internatga ishga va o‘qishga kirgan fuqarolardan pul olmaganman”, deya qayta-qayta takrorladi.

Huquq posbonlariga qilmishidan chin ko‘ngildan pushaymondaligini, 4 nafar farzandlari borligini, oilada yagona boquvchi ekanligini inobatga olib, suddan yengillik berishni so‘radi.

Afsuski, endi kech. Jinoyatga jazo muqarrar. O.Komilov xalqimizning: «Pora yuzni qildi qora” maqolini eshitmagan ko‘rinadi.

Qanchalik gapirilmasin, targ‘ibot ishlari olib borilmasin, baribir bu korrupsiya va firibgarlik degan illat afsuski, hozir ham uchrab turibdi-da. Har qalay bitta bo‘lsa-da poraxo‘rning ishiga nuqta qo‘yildi. Sud tomonidan tegishli jazo tayinlandi.

Zulfiyaxon PATTIYEVA,
Andijon shahar prokurorining katta yordamchisi.

BILASIZMI?

Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, nodavlat notijorat tashkilotlarining va fuqarolarning korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etishi

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar:

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi;

aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishda ishtirok etishi;

korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilikning ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi;

korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritishi;

korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlik qilishi mumkin.

Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolar qonunchilikka muvofiq boshqa tadbirlarda ham ishtirok etishi mumkin.

Nodavlat notijorat tashkilotlari ushbu moddada nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Milliy kengash va hududiy kengashlar faoliyatida, shuningdek davlat organlari huzuridagi ishchi guruhlar, komissiyalar va jamoat-maslahat organlari faoliyatida qonunchilikda belgilangan tartibda ishtirok etadi.

(“Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun 14-moddasi).

Yoshlar siyosati



QORAQALPOG‘ISTONLIK YOSHLAR ANDIJONDA

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Chimboy tumanining kasb-hunar o‘rganish, tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish istagidagi bir guruh yoshlari zarur bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish maqsadida Andijonga tashrif buyurdi. Ular temiryo‘l vokzalida tantanali ravishda kutib olindi.

Mehmonlar “Andijon mebel klasteri”, «Oltinko‘l gulchilik markazi», «Digital Hub» logistika markazi, Andijon shahridagi Zargarlik klasteri faoliyati, Oltinko‘l tumanidagi Ijtimoiyat mahallasida mebelchilik yo‘nalishida olib borilayotgan ishlar, umuman, viloyatdagi bunyodkorlik, yosh tadbirkorlar tomonidan amalga oshirilayotgan ibratli ishlar bilan yaqindan tanishdi.

–“Bir mahalla – bir mahsulot” tamoyili asosida Oltinko‘l tumani Ijtimoiyat mahallasida konveyr usulida mebel mahsulotlari tayyorlash ishlari juda yaxshi yo‘lga qo‘yilgan ekan, – deydi chimboylik Alisher Bektursunov. – Mahallada qariyb 400 xonadon ana shu ish bilan shug‘ullanarkan. Kimdir stol-stul va boshqa mebel jihozlarining turli qismlarini tayyorlab beradi, kimdir yig‘adi, yana kimdir unga ishlov beradi. Shu tariqa mebel mahsulotlari tayyorlanib, xaridorlarga yetkazib berilarkan. Ana shu jarayonlarni kuzatdik, bu bizda katta taassurot va qiziqish uyg‘otdi. Ushbu mahalla tajribasi asosida o‘zim yashaydigan mahallada mebelchilikni yo‘lga qo‘yishni niyat qildim. Nasib etsa, shu ishni amalga oshirishga astoydil harakat qilaman.

Sayohat davomida chimboylik yoshlar turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar bilan uchrashdi, ish jarayonlarini bevosita kuzatdi, ular bilan muloqot va suhbatlar o‘tkazdi.

Tadbirkorlar faoliyati bilan tanishuv, ular bilan suhbatlar chimboylik yoshlarga o‘zlari qiziqqan hunarlarni egallash, yuqori daromadli tadbirkorlik g‘oyalarini amalga oshirishlari uchun katta rag‘bat berdi.

Yoshlar ishlari agentligi, Savdo-sanoat palatasi viloyat boshqarmalari, “Yoshlar – kelajagimiz” jamg‘armasi tomonidan qoraqalpog‘istonlik yoshlar uchun Andijonning diqqatga sazovor joylariga sayohatlar tashkil etildi.

F. Ubaydullayev,
Z. Umrzoqov (surat),
O‘zA muxbirlari

OGOHLIK - DAVR TALABI



QALACHA MFYDA

PROFILAKTIK TADBIR O‘TKAZILDI

Andijon viloyati hududlarida muntazam ravishda odamlar va hayvonlarning sog‘lig‘i uchun xavf tug‘diradigan kasalliklar tarqalishini oldini olish, epizootik va epidemik vaziyatni barqarorlashtirish borasida, Andijon viloyati Ichki ishlar boshqarmasi Jamoat tartibini saqlash boshqarmasi Karantin tadbirlarini ta’minlash guruhi, Shahrixon tumani veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi hamda boshqa mutasaddi idora xodimlari bilan hamkorlikda keng qamrovli profilaktik tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Jumladan, Shahrixon tumani Qalacha MFYda epizootik vaziyatni barqarorlashtirish maqsadida chorva hayvonlarini yuqumli kasalliklarga qarshi emlash va yuqumli kasalliklarni barvaqt oldini olish choralari ko‘rilmoqda.

Sardorbek SHERMATOV,
Andijon viloyati IIB JXX JTSB Karantin tadbirlarini ta’minlash guruhi xodimi, safdor.

МЕРОСХЎРЛАР ДИҚҚАТИГА!

Хонобод шаҳар, Мустақиллик МФЙ, Хонобод кўчаси, 159 уй, 70 хонадонда яшаб, 2024 йил 24 ноябрь куни вафот этган марҳум SAYMAXUNOVA SAMIDA MADAMINOVNAнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Хонобод шаҳри, Обод кўчаси, 134-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Н.Зулунов нотариал идорасига,

Андижон туманида яшаб, 2025 йил 20 январь куни вафот этган марҳум ИСАКЖАНОВ АКБАРАЛИнинг мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон тумани, Дархон МФЙ, Истеъдод кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Н.О. Расулов нотариал идорасига,

Андижон тумани, Катта гузар МФЙда яшаб, 2024 йил 17 ноябрь куни вафот этган марҳум МАДУМАРОВ ХОЛМИРЗА УМАРОВИЧнинг мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Андижон тумани, Бахт МФЙ, Олтин водий кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус А.Қ.Ғуломжонов нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2010 йил 11 февраль куни вафот этган марҳум САЙДАХМЕТОВА ГУЛЬСАРА,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2022 йил 13 декабрь куни вафот этган марҳум MIRZAYEV AYBEK MAMAJANOVICHларнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ш.Рахимов нотариал идорасига,

Жалақудуқ туманидаги уйда яшаб, 2017 йил 25 март куни вафот этган марҳум XOSHIMOVA TURSUNXON нинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Жалақудуқ тумани, Ўзбекистон кўчаси, 57-уйда жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус Ф.Акбаров нотариал идорасига,

Пахтаобод тумани, Қўрғонча МФЙдаги уйда яшаб, 2008 йил 17 ноябрь куни вафот этган марҳум ЗОКИРОВА ХИМОЯТ УМАРАЛИЕВНАнинг мерос мулкларига нисбатан мерос иши очилаётганлиги сабабли марҳумларнинг меросхўрлари ва манфаатдор шахсларни эълон чиққан кундан бошлаб, 1 (бир) ой муддат ичида тегишли ҳужжатлари билан Пахтаобод тумани, Озод диёр кўчасида жойлашган хусусий амалиёт билан шуғулланувчи нотариус М.Ў.Тўйчибоев нотариал идорасига мурожаат қилишлари мумкин.

ADOLAT MEZONI
MUASSIS: «Nurafshon gulshani» mas’uliyati cheklangan jamiyati
Muharrir: M.ORTIQOVA
Tahririyat manzili: Andijon shahri, Navoiy shohko‘chasi, 71-uy.
Telegram: (+998 99) 995-19-66
E-mail: and_mezoni@inbox.uz
Gazeta Andijon viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 2010-yil 16-martda 04-040 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr ko‘rsatkichi - 2536
Gazeta tahrirriyat kompyuter bo‘limida terildi va sahifalandi.
«ZAKOVAT» nashriyot uyi MCHJda original maket asosida chop etildi.
Chop etishga topshirish vaqti 12.08.2025-yil, soat 11.00.
Chop etishga topshirildi 12.08.2025-yil, soat 14.00.
Korxona manzili: Kosonsoy shahri, Chorbog‘ ko‘chasi, 17-uy.
Hajmi 2 bosma taboq. Qog‘oz bichimi A-3. Bahosi kelishilgan narxda.
Buyurtma № . 188 nusxada bosildi.
Navbatchi: M.Mamatqulov. Dizayner: Sirojiddin Mamadali o‘g‘li